

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Shermanov Isobek Chilmamatovich

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Jamilova Norjon Abduxoliq qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi muammosi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy dars usullarining samaradorligi kamayib borayotgani, aberiladi. Shuningdek, o'quvchi motivatsiyasini oshirishga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlar taklif etiladi. Mazkur yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqish, faollik va motivatsiyani oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, o'quv motivatsiyasi, innovatsion pedagogika, raqamli ta'lim, pedagogik yondashuv.

Boshlang'ich ta'lim tizimi shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish, bilim olishga nisbatan ijobiy munosabat va ichki motivatsiya shakllanadi. Biroq so'nggi yillarda raqamli muhitning kengayishi, bolalarning gadjetlarga qaramligi hamda an'anaviy dars usullarining ustunligi sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasining pasayishi kuzatilmoqda.

Motivatsiya - shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi, faoliyatning yo'nalishi, faolligi, uyg'unligi hamda turg'unligini belgilaydi.

Bilamizki, bolalar boshlang'ich sinfda sho'xroq, o'yinqaroq bo'lishadi. Ko'plab dars jarayonlarida o'qituvchi asosan og'zaki tushuntirishga tayanadi, bu esa barcha o'quvchilar tomonidan bir xil darajada qabul qilinmasligi mumkin. Natijada o'quvchilar tez charchaydi, diqqatini yo'qotadi va darsga bo'lgan qiziqishi susayadi.

Shu bois, boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, xususan, zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bugungi kunda har bir inson texnologiyalarga tayanib qolmoqda. Chunki ish faoliyatimiz ham xuddi shu texnologiyalar orqali amalga oshmoqda, ya'ni texnologiyalarsiz hech narsa qila olmaydigan darajaga kelib qoldik. Qayerga borsak qo'limizda telefon, farzandlarimizni ham xuddi shunday muhitga o'rgatib qo'yayapmiz. Shuning uchun bugungi zamon yoshlari texnologiyalarga qiziqqonligi sababli, dars faoliyatida ularda zerikish holatlari kuzatilyapti. Hattoki, o'qishga bo'lgan talabchanligi ham susayib bormoqda. Ayrim ota-onalarning farzandiga yetarlicha motivatsiya berolmayotganligi, o'qituvchilarning esa darsda texnologiyalar orqali o'quvchilarni qiziqтира olmayotganligi sababli, yoshlar orasida bilimsizlar tobora ortib bormoqda. Xalqimiz orasida “ Achchiqni achchiq kesadi” degan naql bor. Shunday ekan biz texnologiyalar orqali rivojlanayotgan zamonda, ta'lim sohasida ham xuddi shunga javoban innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali dars tizimini olib borsak, o'quvchilar motivatsiyasini qayta uyg'otgan bo'lamiz

Quyidagi sun'iy intellektga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali dars jarayonida o'quvchilar motivatsiyasini oshirish mumkin.

- AI texnologiyalariga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlab, o'rgatish jarayonini moslashtiradi va motivatsiyani oshiradi. AI tizimi :
 - o'quvchining javoblari
 - bajarish tezligi
 - xatolar takrorlanishi
 - diqqatning pasayishi kabi ko'rsatkichlarni tahlil qiladi.

Masalan boshlang'ich sinf matematika darsida:

-agar o'quvchi qo'shishda tez, lekin ayirishda qiynalsa AI tizimi ayirishga oid qo'shimcha vizual mashqlar beradi.

Al asosidagi adaptiv tizimlar o'quvchilarning individual bilim darajasini aniqlab, ta'lim mazmunini moslashtirish imkonini beradi.

- Gamifikatsiya elementlari darsni qiziqarli qiladi hamda o'quvchining ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Gamifikatsiya — bu dars jarayoniga o'yin elementlarini (ball, daraja, belgi, musobaqa, sarguzasht) kiritish orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirishdir.

“Ball va yulduzcha” asosidagi dars (eng oddiy va samarali)

Qanday o'tkaziladi?

Har bir to'g'ri javob uchun ★ yulduzcha beriladi. Dars oxirida yulduzchalar kichik sovg'a yoki rag'bat bilan baholanadi

Misol (Matematika):

Mavzu: 10 ichida qo'shish

To'g'ri misol → ★

Ketma-ket 3 ta to'g'ri javob → ★ ★

Nega samarali?

Raqobat emas, rag'bat kuchayadi

Har bir bola muvaffaqiyatni his qiladi

Ball va rag'bat tizimi o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi.

- Kooperativ loyiha asosidagi pedagogik yondashuvlar o'zaro hamkorlik hissi orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Kooperativ o'qitish — bu o'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashi orqali bilimlarni egallash, mas'uliyatni bo'lishish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir.

-Jigsaw” (Pazl) metodi juda mashhur metod hisoblanadi.

Qanday o'tkaziladi?

a.Sinf 4–5 kishilik guruhlariga bo'linadi

b.Mavzu qismlarga ajratiladi

d. Har bir o'quvchi bitta bo'lakni o'rganadi

e. Keyin guruhiga tushuntiradi

Misol (Ona tili):

Mavzu: Matn tahlili

1-o'quvchi: sarlavha

2-o'quvchi: asosiy g'oya

3-o'quvchi: qahramonlar

4-o'quvchi: xulosa

Nega samarali?

Har bir o'quvchi muhim, passivlik kamayadi, o'zaro o'rganish yuz beradi

Jigsaw metodi o'quvchilarning o'zaro mas'uliyatini kuchaytiradi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Shu bois ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari, gamifikatsiya elementlari hamda kooperativ o'qitish metodlarining boshlang'ich ta'limdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning individual o'zlashtirish sur'atlarini hisobga olish, dars jarayonini qiziqarli tashkil etish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

AI texnologiyalariga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari orqali o'quvchilarga shaxsiylashtirilgan topshiriqlar berish, o'qituvchi nutqiga mos ravishda elektron doskada vizual materiallarni avtomatik aks ettirish hamda tezkor teskari aloqani ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'quvchilarning tushunish darajasini oshirib, darsdagi faolligini kuchaytiradi.

Gamifikatsiya elementlari — ball, daraja, sarguzasht va rag‘batlantiruvchi belgilar — o‘quv jarayonini o‘yin faoliyatiga yaqinlashtirib, o‘quvchilarda ijobiy emotsional holat va ichki motivatsiyani shakllantiradi. Kooperativ o‘qitish esa o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, mas’uliyat hissi va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellektga asoslangan adaptiv ta‘lim tizimlari, gamifikatsiya va kooperativ o‘qitish metodlarini uyg‘unlashtirish boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishga, ta‘lim sifatini yaxshilashga hamda pedagogik faoliyat samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar zamonaviy ta‘limda innovatsion yechim sifatida amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
4. Abdullaeva Sh.A. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta‘lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Jo‘rayev R.H. Ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Xodjayev B.X. Zamonaviy pedagogika va ta‘lim texnologiyalari. – Toshkent: Tafakkur, 2018.
7. Saidova M.B. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
8. Usmonova O.M. O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
9. Raxmonov A.A. Axborot texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga joriy etish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

10. Pedagogik innovatsiyalar bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.— Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.